

**O‘zbekistonda fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirishning
huquqiy asoslari**

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish yo‘nalishi magistri
Xaitxodjayeva Farangis Avazovna

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirish tushunchasi, ahamiyati, huquqiy asoslari, nazariy va amaliy masalalar, mazkur masala bo‘yicha yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan g‘oyalar, taklif, fikr va mulohazalar, shuningdek, xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi va xalqaro standartlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, xorijiy mamlakatlar tajribasini qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalari hamda milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, unda har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi, har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi hamda har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanishi, har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega (55-modda)¹ ekanligining mustahkamlab qo‘yilishi mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining bosqichma - bosqich olib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>

borilayotgan-ligini, buning natijasida huquqi buzilgan shaxslarni sud orqali himoya qilish imkoniyatlari kengayayotganligini ko'rsatmoqda.

Fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini belgilovchi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining (keyingi o'rinlarda FPK deb yuritiladi) qabul qilinish esa jamiyatda sud hokimiyatining nufuzini oshirishga, sud orqali himoyalanishga bo'lgan huquqlarni qo'shimcha ravishda kafolatlashga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlashda fuqarolik protsessual qonun hujjatlarining roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi FPKning qabul qilinishi hamda mazkur Kodeksni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun ijodkorligi faoliyati, avvalo insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanligini hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning eng muhim kafolati sifatida sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlash hamda sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yangi tahrirda qabul qilingan FPKda fuqarolik protsessual qonun hujjatlarini rivojlantirishning quyidagi zamonaviy yo'nalishlari, birinchidan, fuqarolik protsessual huquqining asosiy printsiplari, xususan, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi, sudda ish ko'rishning bevositaligi va og'zakligi, fuqarolik ishlarining yakka tartibda ko'rilishi kabi printsiplar mustahkamlab qo'yildi, sud qarorlari ustidan shikoyat va protest keltirish institutiga jiddiy ravishda o'zgartishlar kiritildi, shuningdek odatdagi sud ishlarini yuritishdan o'zgacha bo'lgan, sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rish va hal etish instituti joriy etildi.

Ma'lumki, jamiyatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mantiqiy davomi sifatida sud tizimining demokratik asoslarini isloh qilish va yanada chuqurlashtirish, sud ishlarining adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirish maqsadida Prezidentimizning 2000-yil 14-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi Farmonining² e'lon qilinishi sud tizimini isloh qilishdagi jiddiy qadamlardan biri bo'ldi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 14 avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. 2000. № 3. 30-modda.

Shuningdek, sud tizimini demokratik tamoyillar asosida isloh etish, sud ishlarining adolatli va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlash, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish hamda sudlarning ixtisoslashuvini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida” gi yangi tahrir qonuniga³ muvofiq, sudyalarning maqomi, ularning mustaqilligi kafolatlari va sudya lavozimiga nomzodlar va saylangan shaxslarga qo‘yilgan talablar xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Hujjatda sudyalarning intizomiy javobgarligi qayta ko‘rib chiqilgan, sudyalarning vakolatlarini bekor qilish asoslari va tartibi aniqlashtirilib, ularning sudyalarning ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq bir qator masalalar o‘z ifodasini topdi.

Mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari eng avvalo sudlarning nufuzini ko‘tarish, fuqarolarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qila olishlari uchun keng sharoitlar yaratish hamda bu bilan bog‘liq sudlarning ish yuritish tartibini imkon darajasida soddalashtirishni nazarda tutadi.

Shu o‘rinda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning soddalashtirilgan shakli sifatida ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sud buyrug‘i chiqarish yo‘li bilan hal qilish fuqarolik sud ishlarini yuritishni optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning sud-huquq sohasi isloh etilib, sud hokimiyati mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustunligiga asoslangan huquqiy tizim shakllandi.

Konstitutsiyamizda — sudlarning — mustaqilligini — kafolatlovchi normalar mustahkamlab qo‘yildi. Sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta‘siridan batamom holi etish imkonini beruvchi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to‘xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo‘zg‘atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarildi.

³ O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 28 iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida” gi yangi tahrir qonuni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. 2000. № 11. 155-modda

Umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi.

Aynan ushbu davrda kassatsiya instantsiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning apellyatsiya tartibi joriy etildi.

Biroq mamlakatimizni rivojlantirishning zamona o'rta qo'yayotgan talablari va rivojlanishning strategik ustuvor vazifalari hozirgi kunda boshqa sohalarida bo'layotgani kabi sud-huquq tizimini ham yanada isloh qilishni, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda edi. Shu ma'noda Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizni har tomonlama va jadal rivojlantirish maqsadini ko'zda tutuvchi **O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi** ishlab chiqildi.⁴

Material va metodlar: Ushbu tadqiqotda fuqarolik sud ishlarini yuritish tizimini o'rganish va ularni optimallashtirishning samarali yo'llarini aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, amaldagi qonunchilik bazasi, sud amaliyoti misollari hamda statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ilmiy uslublar qo'llanildi:

• **Tahliliy metod** – fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid O'zbekiston Respublikasi Fuqaroviy protsessual kodeksi, sud qarorlarining mazmuni va mavjud tartib-taomillar o'rganildi.

• **Solishtirma-huquqiy metod** – xorijiy mamlakatlardagi (Rossiya, Germaniya, AQSh) fuqarolik ish yuritish tizimi bilan O'zbekiston tajribasi solishtirilib, samarali usullar aniqlab chiqildi.

• **Empirik metod** – fuqarolik ishlarini yuritishdagi muammolar va ularni optimallashtirishga doir mavjud amaliyotlar, sudya va yuristlarning fikrlari asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari: Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi F-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 13 fevral, 6-son, 70-modda.

ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institut-lari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida 2022-yilning 28-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.⁵ Farmon bilan tasdiqlangan Davlat dasturining “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” nomli II-yo'nalishida “Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish” kabi muhim vazifa belgilandi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirishda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar alohida o'rin tutadi.

Ayniqsa, fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini belgilovchi O'zbekiston Respublikasining yangi FPK qabul qilinish va kuchga kirishi (2018-yil 1-aprel) jamiyatda sud hokimiyatining nufuzini oshirishga, sud orqali himoyalanihga bo'lgan huquqlarni kafolatlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, jamiyatning demokratlashuvi va yangilanishi natijasida u yoki bu sub'ektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual huquq normalari ham takomillashib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

Binobarin, sudyalarning ish yuklamalarini kamaytirish maqsadida sud tartib-taomillarining soddalashtirilgan protsessual shakllarini ishlab chiqish fuqarolik protsessual qonunchilikni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi va rivojlantirildi.

Aynan sudlarga kelib tushayotgan fuqarolik ishlari sonining ko‘payib borishi fuqarolik protsessual qonunchilikni mazkur yo‘nalishda rivojlan-tirishni taqozo etadi.

Shu maqsadda, fuqarolik protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan sud-huquq islohotlari davom ettirilib, fuqarolarning sud orqali himoyalani sh huquqini amalga oshirish uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi FPKga “Sud buyrug‘i” deb nomlangan 18-bob kiritildi va unda fuqarolik ishlarini hal qilishning bir qator soddalashtirilgan tartibi nazarda tutildi.⁶ Fuqarolik protsessual qonunchilikka buyruq tartibida ish yuritish institutining kiritilishi mamlakatimizning bozor munosabatlariga o‘tishi, iqtisodiy munosabatlar-ning tobora rivojlanib borishi, fuqarolik huquqiy shartnomalar, kelishuvlar va bitimlar sonining ortib borishi bilan ham izohlanadi.

Ma'lumki, FPKning 2-moddasiga ko‘ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etishdan iborat ekanligi mustahkamlab qo‘yildi.

O‘z navbatida, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri himoya qilish sud ishlarini soddalashtirish masalalari bilan bog‘liq hisoblanadi. Shuning uchun ham qonunchilikka buyruq tartibida ish yuritish institutining kiritilishi fuqarolik ishlarini sudda qo‘zg‘atmasdan hamda sudda mazmunan ko‘rmasdan tezkor va ixchamlashtirilgan tartibda hal etish imkonini beradi. Buyruq tartibida ish yuritish, ayniqsa, aliment undirish to‘g‘risidagi, fuqarolik-huquqiy shartnomalar, bitimlardan kelib chiqadigan ayrim nizosiz bo‘lgan talablar yuzasidan sud ishlarini tezkorlik bilan, kam xarajat sarflab hal etilishini ta'minlaydi, sud orqali himoyalani sh huquqining samaradorligini va ta'sirchanligini oshiradi.

Muqaddam mamlakatimizda amalda bo‘lgan FPKda barcha toifadagi fuqarolik ishlarini mazmunan ko‘rib hal qilishning yagona tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // <http://old.lex.uz>

fuqarolik ishlari sud majlisida, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishtirokida, ular tomonidan sudga taqdim etilgan dalillar va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar bo‘lmish guvohlarning ko‘rsatmalari, ekspertlarning xulosalari asosida mazmunan ko‘rib hal qilingan. Biroq fuqarolik ishlari taraflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning murakkabligi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shunday turkumdagi ishlar mavjudki, ular kam ahamiyatli ishlar toifasiga kirib, ularni hal etish sudlar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi, ularni sudga murojaat qilgan shaxslar tomonidan taqdim etilgan muayyan dalillar orqali hal etish imkoniyati mavjud. Masalan, notarial tasdiqlangan, yozma va qarzdor tomonidan tan olingan bitimlarga oid ishlar, aliment, ish haqini undirish to‘g‘risidagi ishlar shular jumlasidandir.

Da‘vo tartibida ish yuritish bir qator rasmiyatchiliklarni taqozo etadiki, o‘z navbatida nizosiz bo‘lgan talablar bo‘yicha ish yuritishda ushbu rasmiyatchiliklardan voz kechish fuqarolar o‘rtasidagi nizoli bo‘lmagan munosabatlarini ortiqcha sansalorliklarsiz tartibga solish imkoniyatini yaratadi. Buyruq tartibida ish yuritish institutining joriy etilishi munosabati bilan sudda mazmunan ko‘rib hal etilayotgan ishlar soni kamayganligi kuzatilmoqda.

Shuning bilan birga, sudlarga kelib tushayotgan sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizalarning soni ortib borayotganligini ham ta’kidlash joiz. Masalan, 2021-yilning 1-yarmida fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlaro, tuman (shahar) sudlari tomonidan chiqarilgan sud buyruqlarining soni 78652 tani tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020 yilning mos davriga qaraganda (30424 ta) ikki baravardan ko‘pni tashkil etadi.⁷

Bularning barchasi – fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini o‘z vaqtida hamda soddalashtirilgan tartibda sud orqali himoya qilishga qara-tilgan mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining samarasi hisoblanadi.

Xulosa: Ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish hamda shaxs huquqi va qonuniy manfaatlarini tez fursatlarda himoya qilishdagi hamda ishlarni kam xarajat sarflab, soddalashtirilgan tartibda ko‘rib hal qilish-dagi ahamiyatini inobatga olgan sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha talablar ro‘yxatini yanada kengaytirish taqozo

⁷ Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha hamda iqtisodiy va ma’muriy sudlarning 2021 yil 1-yarmi davomidagi ish faoliyati to‘g‘risida statistik ma’lumotlar to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. –Toshkent, 2021. – 1 bet.

etilmoqda. Sud ishlarini soddalash-tirilgan tartibda yuritish, shuningdek sud'yalarning ish yuklamalarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Buyruq tartibida ish yuritish institutining joriy etilishi quyidagi vazifalarning hal etilishini ta'minlaydi:

birinchidan, sub'ektiv huquqlarni himoya qilishning tezkorligini va uni ro'yobga chiqishining samaradorligini oshiradi;

ikkinchidan, sud orqali himoyaning barcha uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi;

uchinchidan, sud'yalarni kengaytirilgan va murakkablashtirilgan tartib-taomillar asosida ko'rilishini talab etadigan ishlardan ozod qiladi;

to'rtinchidan, fuqarolarda o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlik hisini uyg'otadi;

beshinchidan, huquqning ogohlantiruvchi funksiyasini kuchaytiradi.

Sud buyrug'i moddiy huquq normasi orqali shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bo'yicha davlatning majburlov choralarini tez harakatga keltiruvchi muhim hujjat hisoblanadi.

O'z navbatida, mazkur sohada olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish hamda shaxs huquqi va qonuniy manfaatlarini tez fursatlarda himoya qilishdagi hamda ishlarni kam xarajat sarflab, soddalashtirilgan tartibda ko'rib hal qilishdagi ahamiyatini inobatga olgan sud buyrug'i institutini yanada takomillashtirish taqozo etilmoqda.

Birinchi navbatda, nazarimizda sud buyrug'i nizosiz talablar yuzasidan sud muhokamasi talab qilinmaydigan ishlar bo'yicha chiqarilishini e'tiborga olgan holda sud buyrug'ini chiqarish vakolatini bosqichma-bosqich sudyaning katta yordamchilari vakolatiga o'tkazish lozim.

Ma'lumki, sudyalar yordamchisi lavozimining ta'sis etilishi sudyalar-ning ish bilan bandligini maqbullashtirishga, pirovardida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, sudya yordamchilari lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarning loyiq topilishi va ularga fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan, yuforida qayt etilganidek, nizosiz talablar bo'yicha sud buyruqlarini chiqarish kabi vazifalarning yuklatilishi kelajakda mamlakatimizda sudyalar zaxirasini shakllantirish, sudyalik lavozimlariga tavsiya etish uchun eng yaxshi nomzodlarni tanlash imkonini beradi.

Shu o'rinda xorijiy tajribaga murojaat qilsak, masalan, AQShda sud yordamchilarining asosiy vazifasi huquqiy masalalar bo'yicha sud hujjatlarini to'plash,

protsess ishtirokchilarining sud zaliga kelishini ta'minlash va sudyaning boshqa topshiriqlarini bajarishdan iborat ekan. Germaniya sud tizimida esa sudyaning yordamchisi sudyalar tomonidan odil sudlovni amalga oshirilishini ta'minlashga ko'maklashishdan tashqari ayrim toifadagi ishlar, xususan, meros, kadastr ishlari, vasiylik va homiylik bilan bog'liq ishlar yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga ega ekan. Avstriya, Daniya va Estoniya kabi davlatlarda sudya yordamchisi sud buyruqlarini chiqarish kabi vakolatlarga ham ega.

Ikkinchidan, yuqoridagi tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, sudlarga kelib tushayotgan sud bo'yrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalarning soni ko'payib bormoqda. Bu esa o'z navbatida sud'yalarning sud buyrug'i chiqarish bo'yicha oylik ish hajmi ortib borayotganligini bildiradi. O'z navbatida sud buyrug'ini chiqarish haqidagi arizalarning ko'payib borishi sud'yalar tomonidan buyruq tartibida ish yuritishni yaxshi tashkil qilmaslik, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish asoslarini chuqur tekshirmaslik, arizadagi kamchiliklarga e'tibor bermaslik, sud buyruqlarini chiqarish muddatlariga rioya qilmaslik, qarzdorga sud buyrug'ining ko'chirma nusxasi yuborilishi haqidagi talablarining buzilishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, sudlarga kelib tushayotgan sud buyrug'ini chiqarish haqidagi arizalarning sonini kamaytirish, bu borada undiruvchi va qarzdorning mas'uliyatini oshirish maqsadida sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizaga qo'yilgan talablardan biri sifatida undiruvchi sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani sudga taqdim etganida qarzdorga shu arizaning nusxasini topshirgan bo'lishi shartligi haqidagi talabni kiritish taklif qilinadi. Mazkur tartibning belgilanishi shuningdek, sud bo'yrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizalarning sudlarga kelib tushishini tartibga soladi va mazkur masalani sudga qadar hal etilishiga xizmat qiladi.

Bu kabi qonunchilik tajribasi milliy protsessual qonunchiligimizda mavjudligini ta'kidlash joiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 137-moddasida kreditor sud buyrug'ini berish to'g'risida ariza berganida qarzdorga shu arizaning ko'chirma nusxasini topshirishi shartligi belgilangan.⁸

⁸ O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // <http://old.lex.uz>

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2000. – № 3. – 30-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2021. – № 11. – 155-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
6. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // <http://old.lex.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // <http://old.lex.uz>
8. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha hamda iqtisodiy va ma‘muriy sudlarning 2021-yil 1-yarmi davomidagi ish faoliyati to‘g‘risida statistik ma‘lumotlar to‘plami. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. – Toshkent, 2021. – 1 bet.

Research Science and
Innovation House